



MARKAZIY OSIYONING YER-SUV VA TRANSCHEGARAVIY MUAMMOLARINI HAL ETILISHIGA DOIR FIKR-MULOHAZALAR

Shamsiyeva Maxfuzaxon Xo'ja qizi

Farg'ona davlat universiteti, tarix fanlari bo'yicha

falsafa doktori, dotsent.

99 365 54 33

shamsiyeva69@gmail.ru

Аннотация: *Ushbu maqolada Turkistonda o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish oqibatida qadimdan umumiy yer-suv munosabatlariga asoslangan yaxlit xo'jalik turli hududiy birliklarga parchalanib ketganligi, Markaziy Osiyo davlatlari chegaralarida yuzaga kelgan anklav va eksklavlar, mustaqillik yillarida davlat chegaralarini delimitasiya va demarkasiya qilish, o'zaro hamkorlik borasida amalga oshirilgan ishlar yoritilgan.*

МНЕНИЯ О РЕШЕНИИ СУХОПУТНО-ВОДНЫХ И ТРАНСГРАНИЧНЫХ ПРОБЛЕМ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Аннотация: *В статье освещаются результаты национально-территориального размежевания в Туркестане, сложное хозяйство которого было разделено на различные территориальные единицы, анклавов и эксклавов, возникшие на границах стран Центральной Азии на основе общих земельно-водных отношений. В статье также говорится о взаимном сотрудничестве, делимитации и демаркации государственных границ в годы независимости,*

OPINIONS ON SOLVING LAND-WATER AND TRANSBOUNDARY PROBLEMS OF CENTRAL ASIA

Annotation: *The article highlights the results of national-territorial demarcation in Turkestan, whose complex economy was divided into various territorial units, enclaves and exclaves that emerged on the borders of Central Asian countries based on common land and water relations. The article also refers to mutual cooperation, delimitation and demarcation of state borders during the years of independence,*

Tayanch so'z va iboralar: *Markaziy Osiyo, chegara, yer-suv, yaylov, anklav, eksklav, ziddiyat, uchrashuv, tadbir, shartnoma.*

Ключевые слова: *Центральная Азия, граница, земля-вода, пастбище, анклав, эксклав, конфликт, встреча, событие, договор.*

Keywords and expressions: *Central Asia, border, land-water, pasture, enclave, exclave, conflict, meeting, event, treaty.*

Uzoq tarixdan g'arb va sharqni bog'lagan Buyuk Ipak yo'li markazida joylashgan Markaziy Osiyo mintaqasi o'zining boy ma'daniyati bilangina emas ulkan energetik va boy qazilma boyliklariga egaligi bilan ajralib turadi.

XXI asrga kelib yer yuzida yagona hukmronlik tizimini yaratish uchun kurash yangi turli xil ko'rinishlarda namoyom bo'lmoqda. Amerikalik olim S.Xantington



“Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi va dunyo tartibotini qaytadan qurilishi” asarida so‘nggi yillarda yer yuzida kechayotgan geosiyosiy jarayonlarning eng muhim xususiyatlarini tahlil qilar ekan, mazkur jarayonlar aynan Yevrosiyo qit‘asi, xususan, shu qit‘a markazida joylashgan “o‘zak mamlakatlar”ga tasir etish va ular hududini egallash maqsadida ro‘y berayotganini ta‘kidlaydi [1].

Markaziy Osiyoda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan murakkab vaziyatni AQSHning taniqli tadqiqotchilaridan biri Z.Bzejinskiy “Buyuk shaxmat taxtasi” asarda 1993-2015-yillar davomida dunyo energetik zahiralari bo‘lgan ehtiyoj 50 foizga ko‘tarilishini ko‘rsatib o‘tgan. Shu nuqtai nazardan yangi-yangi energetika zahiralari izlab topishga bo‘lgan ehtiyoj yetakchi davlatlarni ushbu zahiraga boy hudud tomon, xususan Markaziy Osiyo tomon chorlashi aniq. Tabiiy zahiralarga boy va ayni paytda millatlararo munosabatlar, tarixiy hududlar masalalari jihatdan notinch bo‘lgan mintaqada millatlararo, hududiy negizda turli nizolarni keltirib chiqarishga urinishlar bo‘lishi mumkinligini [2:151] aytadi.

Tarixdan ayyonki, 1924-yilning 15-iyulida Markaziy Osiyo byurosi milliy chegaralanish loyihasini tayyorlanib, 1924-yilning 27-oktyabrida bo‘lib o‘tgan SSSR BMIQ II sessiyasida Turkistonda milliy hududiy chegaralanishni o‘tkazish tadbirlarini to‘la to‘kis ma‘qullangan edi [3:44].

Natijada Turkiston qadimdan umumiy yer-suv munosabatlariga asoslangan yaxlit xo‘jalik turli hududiy birliklarga parchalanib ketdi, delimitatsiya jarayoni tor yondashuv asosida amalga oshirilib, mintaqadagi xalqlarning, tarixiy, geografik, ijtimoiy iqtisodiy xususiyatlariga juda kam etibor berildi. Sobiq ittifoq respublikalari orasida eng ko‘p anklav Farg‘ona vodiysida bo‘lib, bu yerda O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston hududlari bir-birining ichida joylashgan edi [4:105].

Mustaqillikning dastlabki yillarida Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida yer-suv masalalarida ziddiyatlar yuzaga keldi. Xususan, XX asr oxirlarida Panj va Vaxsh daryolariga suv ombori, GES, tog‘on va gidrouzellarining qurilishi oqibatida Amudaryo suvi ham tobora kamayib, nafaqat, O‘zbekiston, shu bilan birga Afg‘onistonning shimoliy, Turkmanistonda ham suv resurslarining kamayishi kuzatildi.

Hozirgi vaqtda ham suv bilan bog‘liq muammoli vaziyatlar anklav-eksklav hududlarida dolzarbligicha qolmoqda. Jumladan, So‘x, Vorux va Shohimardon singari yirik anklavlarda ushbu masala dolzarb tus aks etadi. Bugungi kunda hukumatlararo ushbu muammolar hal etilayotgan bo‘lsada, buning tagzamidida chegaraviy nomutanosiblik yotgani yaqqol ko‘rinib turibdi.

Shuni aytish joizki, sobiq ittifoq davrida yer va yaylovlardan umumiy foydalanilgan. Jumladan, Namangan viloyati Pop tumanining shimoli g‘arbidagi Sarvaksoy havzasi 1935-yilda Tojikiston Respublikasiga yaylov sifatida foydalanish uchun ijaraga berilgan [5]. Biroq, hozir ham Tojikistonning O‘zbekiston hududidagi esklavi bo‘lib qolmoqda.

1950-1960-yillarda qo‘shni Qirg‘iziston davlati O‘zbekistonning So‘x–Rishton atofidagi yaylovlardan vaqtincha foydalanish uchun ijaraga olganlar, mustaqillikdan so‘ng ijara olingan yerlar hisobiga Cho‘ng‘ara va So‘x anklav hududiga aylanib qoldi.

Toshkent, Qo‘qon va Angren yo‘li o‘tkazilgungacha asosiy yo‘l Tojikistonning Xo‘jand shahri orqali amalga oshirilgan. Faqat transport yo‘li emas, balki neft-gaz quvirlari va temir yo‘llari ham ana shunday qo‘shni respublikalar orqali o‘tkazilgan.



Yuqorida ta'kidlangandek, sobiq ittifoq davrida yer-suv, transport va temir yo'llardagi umumiylik muammo tug'dirmagan bo'lsada, biroq mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyo davlatlarida siyosiy-iqtisodiy muammolarni yuzaga keltirdi.

Markaziy Osiyo davlatlari o'tmishigina emas kelajagi ham bir-biriga bog'liqdir. Davrlari rahbarlari o'rtasida chegaraviy, anklav – esklav suv resurslaridan foydalanish va ekologik muammolar o'zaro kelishilgan holda hal etilmas ekan, bu kabi muammolar davlatlar o'rtasidagi siyosiy va o'zaro iqtisodiy va ma'daniy aloqalarga albatta qaysidir ma'noda ta'sir etib mintaqaning integrallashuvini sekinlashishiga sabab bo'laveradi.

Ta'kidlash joizki, 2017-2021-yillar davomida Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida yaxshi qo'shnichilik, konstruktiv, puxta o'ylangan va pragmatik siyosatni amalga oshirilishi natijasida suvdan foydalanish, davlat chegaralarini delimitasiya va demarkasiya qilish, chegaralarni kesib o'tish, transport kommunikasiyalaridan foydalanish kabi murakkab muammolarga yechim topildi.

Xususan, 2017-yil 10-11-noyabr kunlari Samarqand shahrida BMT shafe'ligida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi xalqaro konferensiyada O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston o'rtasidagi bahsli nuqtalar bo'yicha kelishuvga erishildi[6]. Bu uchrahuv Markaziy Osiyo davlatlarining keyingi hamkorlik aloqalarini rivojlanishiga katta turtki berdi.

2020-yil davomida Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyati bo'yicha 23 marta oliy darajada va 12 ta yuqori darajada tashrif va turli tadbirlar amalga oshirilganligi o'zaro hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga ko'tarilganligini ko'rsatadi.

Markaziy Osiyo energetik salohiyat, tabiiy resurslar, transport-kommunikatsiya imkoniyatlariga ega ulkan geosiyosiy ahamiyat kasb etadi, bu mintaqadagi jarayonlar butun Yevroosiyo kontinenti barqarorligiga o'z ta'sir ko'rsatadi.

Bugun Markaziy Osiyoning jahon hamjamiyatida ahamiyati va roli oshib borayotganligini dunyoning yirik davlatlari o'rtasida hamkorlikning turli formatlari tashkil qilinyotganidan ham bilishimiz ham mumkin. "Markaziy Osiyo – AQSH", "Markaziy Osiyo – Yevropa ittifoqi", "Markaziy Osiyo – Koreya Respublikasi", "Markaziy Osiyo – Yaponiya" kabi muloqot formatlari qatoriga oxirgi yillarda "Markaziy Osiyo – Hindiston", "Markaziy Osiyo – Xitoy", "Markaziy Osiyo – Rossiya Federatsiyasi" kabi yangi formatlar qo'shildi. Mazkur holat birinchidan, dunyoning etakchi davlatlari tomonidan Markaziy Osiyoga nisbatan e'tiborni oshganini ko'rsatsa, ikkinchidan xorij davlatlarini mintaqada davlatlari bilan ikki tomonlama shartomalar tuzishdan manfaatdor ekanligidan darak beradi [7].

Bugun Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari tashqi siyosatda ancha ochiq siyosat olib borayotganliklari bois hamkorlik bo'yicha ijobiy istiqbollarga erishmoqdalar. Biroq, mintaqada chegara-hududiy va suv-energetika muammolari, bojxona to'siqlari, ilmiy va ta'limga oid axbotot almashinuvi hamda ilmiy-tadqiqotchilik aloqalarining sustligi kabi masalalar o'z yechimini kutmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.



1. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций и переустройство мирового порядка // "Полис", 1994, 1-сон.- Б.11.
2. Бзежинский З. Великая шахматная доска.-М.:Международные отношения, 2000- Б.151
3. Rajabov Q, Zamonov A. O'zbekiston tarixi Toshkent, 2017.- В.44.
4. Жумахонов Ш.З., Тошпўлатов А.М. Анклавлар назарияси: Географик ва геосиёсий таҳлил.(монография). Наманган, 2021. -В.105
5. <https://novayaeroxa.com/anklavy-v-centralnoyazii-istoriya-i-s/270761/>
Зверинцева Т, Ханкишиев И. Анклавы в Центральной Азии: история и современные проблемы.
6. <https://kun.uz/uz/news/2021/08/06/ozbekistonning-markaziy-osiyodagi-tashqi-siyosati-erishilgan-yutuqlar-va-amalga-oshirilishi-zarur-bolgan-islohotlar>
7. [https://strategy.uz//index.php?navs=1278/taraqqiyot-strategiyasi-markazi//markaziy-Osiyo-davlatlari-bilan-do'stona-hamkorlik - O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining ustuvor yo'nalishi.03.04.2021.](https://strategy.uz//index.php?navs=1278/taraqqiyot-strategiyasi-markazi//markaziy-Osiyo-davlatlari-bilan-do'stona-hamkorlik-O'zbekiston-tashqi-siyosiy-faoliyatining-ustuvor-yo-nalishi.03.04.2021)